



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 26-iyul

362-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 4-iyuldagi 383-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 333-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari tasniflari o‘zgarganligi, yangi yo‘llar qurilganligi va qayta qurilganligi, avtomobil yo‘llarining toponimik nomlanishidagi o‘zgarishlarni inobatga olib, foydalanuvchilar uchun qulayliklar yaratish hamda transport vositalarining xavfsiz harakatlanishini ta‘minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 10-oktabrdagi PQ-330-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 4-iyundagi 383-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 333-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 4 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarini samarali tashkil etishga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 383-son qarori ijrosi haqida”gi 333-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo‘llari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasining davlat ahamiyatiga ega avtomobil yo‘llari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasining mahalliy ahamiyatga ega avtomobil yo‘llari ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 4-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi e‘tiborga olinsin.

3. Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi, tuman yo‘llari foydalanish davlat muassasasi, tuman obodonlashtirish boshqarmasi, tuman ichki ishlar bo‘limi hamda boshqa manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

“O‘zbekiston Respublikasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 4-iyuldagi 383-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov